



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA TASVIRIY SAN'AT VOSITALARI ORQALI O'QUVCHILARNING MA'NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Sayddakbarova Gullola

Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur tezisimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at vositalaridan samarali foydalanish tadbiriq etiladi. Bu orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotimda tasviriy san'atning o'quvchilar dunyoqarashi, estetik didi, hissiy munosabati va axloqiy qarashlarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, rangtasvir, grafika, amaliy-bezak san'ati, milliy naqshlar, portret, manzara hamda ma'naviy-axloqiy mazmundagi badiiy asarlardan ta'lim jarayonida foydalanishning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qaratiladi. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini suhbat, kuzatish, badiiy asarni tahlil qilish, muammoli vaziyat, ijodiy topshiriq va jamoaviy faoliyat bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda insonparvarlik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, hurmat, mas'uliyat, halollik, bag'rikenglik va go'zallikni qadrlash kabi fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlari asoslanadi. Tezisimda tasviriy san'at va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning uzviy integratsiyasi o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishiga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yo'nalish sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, ma'naviy-axloqiy tarbiya, o'quvchi shaxsi, badiiy ta'lim, estetik did, axloqiy fazilatlar, empatiya, ijodkorlik, vatanparvarlik.

KIRISH



Hozirgi davrdagi axborot oqimi jadal kechayotgan davrda ta'lim oldiga qo'yilayotgan talablar faqatgina o'quvchilarga muayyan bilim va ko'nikmalarni berish bilan cheklanib qolmayapti. Zamonaviy maktablarimizda ta'limida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularni mustaqil fikrlaydigan, atrofdagilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatadigan, ezigulik va yovuzlik, go'zallik va xunuklik, mas'uliyat va befarqlik kabi tushunchalarni farqlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu jihatdan qaralganda, ta'lim mazmunining tarbiyaviy yo'nalishini kuchaytirish va o'quvchining shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vositalarni aniqlash alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonda san'atning inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi imkoniyatlaridan foydalanish muhim metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki san'at insonning borliqni nafaqat aqliy, balki hissiy va obrazli tarzda anglashiga yordam beradi. Tasviriy san'at esa o'zining rang, shakl, obraz, kompozitsiya va badiiy ifoda vositalari orqali o'quvchining ichki kechinmalariga ta'sir ko'rsatib, uning estetik qarashlari bilan bir qatorda ma'naviy mezonlarining shakllanishiga ham zamin yaratadi. Badiiy obrazni kuzatish, uning mazmunini anglash va muallif ifodalagan g'oya haqida fikr yuritish o'quvchini atrof-



muhitga, insonlarga va ijtimoiy hodisalarga ongli munosabat bildirishga undaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlari tayyor holda shakllanmaydi. Ular oilaviy muhit, ijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya, shaxsiy tajriba va madaniy muhit ta'sirida bosqichma-bosqich tarkib topadi. Maktab davri esa mazkur jarayonning eng faol bosqichlaridan biri bo'lib, aynan shu davrda o'quvchining axloqiy qarashlari, xulq-atvor me'yorlari va qadriyatlarga munosabati mustahkamlanadi. Shu sababli tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ma'naviy mazmunni badiiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish samarali tarbiyaviy natijalarga olib kelishi mumkin.

Yurtimizdagi tasviriy san'atning o'ziga xosligi shundaki, unda o'quvchi bir vaqtning o'zida kuzatuvchi, ijodkor va tahlilchi sifatida faoliyat olib boradi. U san'at asarini idrok etish orqali muayyan voqea yoki holatga nisbatan hissiy munosabat hosil qiladi, ijodiy topshiriqni bajarish jarayonida esa o'z qarashlarini mustaqil ravishda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Masalan, ezgulik, mehribonlik, insoniylik yoki Vatanga muhabbat mazmunidagi kompozitsiyalarni yaratish jarayonida o'quvchi mazkur tushunchalarning mohiyati haqida fikrlaydi va ularni o'z tasavvuri asosida obrazli ifodalashga harakat qiladi. Natijada axloqiy tushuncha abstrakt bilim shaklida emas, balki shaxsiy ijodiy tajriba orqali o'zlashtiriladi. Bundan tashqari, tasviriy san'at o'quvchilarning emotsional sezgirligini kuchaytirish va boshqa insonlarning holatini tushunish qobiliyatini rivojlantirish uchun ham qulay imkoniyat yaratadi. Turli obrazlar, inson qiyofalari, hayotiy lavhalar va ijtimoiy mazmundagi san'at asarlarini tahlil qilish davomida o'quvchi boshqa shaxslarning kechinmalarini tasavvur qilishga intiladi. Bunday jarayon empatiyaning rivojlanishiga, o'zgalarning fikri va his-tuyg'ulariga hurmat bilan qarashga, mehr-shafqat va hamdardlik tuyg'ularining kuchayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, badiiy asarning mazmuni yuzasidan fikr almashish o'quvchilarning muloqot madaniyatini ham takomillashtiradi.

Tezisimning tadqiqot predmeti shundan iboratki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at darslari orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish jarayonining mazmuni, shakl, metod va vositalarini o'rganishdan iborat. Bunda, masalan, vatanparvarlikni shakllantirishda tarixiy va milliy mavzudagi rasmlardan, mehr-oqibat va insonparvarlikni rivojlantirishda insonlar o'rtasidagi ezgu munosabatlarni aks ettiruvchi kompozitsiyalardan, tabiatga mehr uyg'otishda manzara janridan, mehnatsevarlikni tarbiyalashda mehnat jarayonlari tasvirlangan badiiy asarlardan, milliy qadriyatlarga hurmatni rivojlantirishda milliy naqshlar va amaliy-bezak san'ati namunalaridan foydalanish jarayoni tadqiq etiladi. Tadqiqot maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at vositalaridan samarali foydalanish asosida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat. Mazkur maqsad doirasida tasviriy san'at darslarida rasm chizish, badiiy asarlarni tahlil qilish, ijodiy topshiriqlar bajarish, suhbat va munozaralar tashkil etish, guruhli ijodiy ishlar hamda milliy san'at namunalarini o'rganish orqali o'quvchilarda halollik, mehr-oqibat, hurmat, vatanparvarlik, mas'uliyat, bag'rikenglik,





mehnatsevarlik va estetik did kabi fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash ko'zda tutiladi.

Tasviriy san'at vositalarining ma'naviy-axloqiy tarbiyadagi imkoniyatlarini kengaytirishda milliy badiiy merosdan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. O'zbek xalqining amaliy-bezak san'ati, milliy naqshlari, tarixiy obidalar, buyuk ajdodlar siymosi, xalq turmushi va urf-odatlarini aks ettiruvchi badiiy namunalardan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy madaniyatga qiziqish va hurmatni kuchaytirish mumkin. Bunday materiallar yosh avlodning tarixiy xotirasini boyitish bilan birga, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ajdodlar merosiga munosib munosabatda bo'lish va o'zligini anglash kabi ma'naviy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Shuningdek, turli xalqlarning san'at namunalarini o'rganish o'quvchilarda madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarash, boshqa qarash va an'analarni tushunish, bag'rikenglik va ochiq fikrlilikni rivojlantirish imkonini beradi. San'atning umumiy insoniy mazmuni turli madaniyat vakillarini birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois tasviriy san'at darslarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etish o'quvchilarning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchining metodik mahorati hal qiluvchi omillardan biridir. Tasviriy san'at vositalaridan foydalanishning o'zi avtomatik tarzda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirib bermaydi. Buning uchun pedagog badiiy materialni tarbiyaviy maqsadga muvofiq tanlashi, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi hamda rasm chizish faoliyatini suhbat, savol-javob, kuzatish, badiiy asarni sharhlash, munozara, muammoli vaziyat, ijodiy topshiriq va hamkorlikdagi faoliyat bilan uyg'unlashtirishi lozim. Ana shunday yondashuv o'quvchining san'atga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish bilan birga, unda muayyan axloqiy xulosalarning shakllanishiga ham sharoit yaratadi. Demak, tasviriy san'atni ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'lash umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashi, ijodiy tafakkuri va hissiy madaniyati bilan bir qatorda, insoniy munosabatlari va axloqiy qarashlarini ham rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi. Shundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida tasviriy san'at vositalari orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning mazmuni, metodlari va pedagogik imkoniyatlarini ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etish dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanov R. Tasviriy san'at asoslari. – Toshkent: Fan, 2008.
2. Hasanov R. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004. – 106 b.
3. Oydinov N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.



4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1994. – 296 b.
5. Sarsenova G‘.S. Tasviriy san‘at faktorlari orqali maktab o‘quvchilarining odob-axloq fazilatlarini rivojlantirish // *Eurasian Journal of Academic Research*. – 2024. – Vol. 4, Issue 3. – B. 92–95.
6. Выготский Л.С. Психология искусства. – Москва: Искусство, 1986.
7. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991.
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975.
9. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1968.
10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002.

